

BAHOUDDIN NAQSHBAND TARIQATLARIDA BAG‘RIKENGLIK VA INSONPARVARLIK MASALALARI

**Dehqonov Behzod Baxtiyorovich - Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va
manbashunosligi, falsafa” kafedrası v.b.dotsenti f.f.f.d. (PhD)**

E-mail: behzodbaxtiyorovich@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Bahouddin Naqshband tariqatlarida bag‘rikenglik va insonparvarlik masalalarining falsafiy tahlili o‘z aksini topgan. Naqshbandiya tariqati inson hayotini hamma jabhalarini chuqur o‘rgangan ta’limot ekanligi hamda Bahouddin Naqshbandning insonni e’zozlash, qadrlash va unga nisbatan mehr-muruvvatli bo‘lish haqidagi g‘oyalari va hikmatli so‘zlarini yoshlar orasida targ‘ib etish tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar: Bahouddin Naqshband, Naqshbandiya tariqati, insonparvarlik, axloq, bag‘rikenglik, tafakkur, ilm, vijdon, ijtimoiy hayot, ma’naviy yetuklik.

ВОПРОСЫ ЧЕЛОВЕЧНОСТИ В УЧЕНИИ НАКШБАНДА

**Дехканов Бехзод Бахтиёрович – исполняющий обязанности доцента
кафедры «Исламская история и источниковедение, философия»**

Бухарского государственного университета. (Кандидат наук)

E-mail: behzodbaxtiyorovich@gmail.com

Аннотация: В данной статье отражен философский анализ вопросов толерантности и гуманности в сектах Бахауддина Накшбанда. Анализируется, что секта Накшбандия – это учение, глубоко изучившее все стороны человеческой жизни, а также пропаганда среди молодежи идей и мудрых слов Бахауддина Накшбанда о почитании, признательности и доброте к человеку.

Ключевые слова: Бахауддин Накшбанд, секта Накшбанди, гуманизм, этика, толерантность, мышление, знание, совесть, общественная жизнь, духовная зрелость.

ISSUES OF HUMANITY IN THE TEACHINGS OF NAQSHBAND

**Dehkanov Behzod Bakhtiyorovich - acting associate professor of the
department of "Islamic history and source studies, philosophy" of Bukhara
State University. (PhD)**

E-mail: behzodbaxtiyorovich@gmail.com

Abstract: In this article, the philosophical analysis of the issues of tolerance and humanity in Bahauddin Naqshband sects is reflected. It is analyzed that the Naqshbandiyya sect is a doctrine that has deeply studied all aspects of human life,

and the promotion of the ideas and wise words of Bahauddin Naqshband about honoring, appreciating and being kind to the person among the youth.

Key words: Bahauddin Naqshband, Naqshbandi sect, humanitarianism, ethics, tolerance, thinking, knowledge, conscience, social life, spiritual maturity.

Kirish

Naqshbandiya tariqati tamoyillari, ayniqsa tariqatning bag‘rikenglik, halollik va insonparvarlik g‘oyalari hamda tariqat amaliyoti XIV asr o‘rtalari, XV asrning birinchi yarmida va undan keyingi davrlarda nafaqat Turkiston balki musulmon olamida madaniy, diniy-irfoniy, ijtimoiy siyosiy, badiiy-axloqiy va ilmiy-falsafiy fikr taraqqiyoti hamda rivojiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Tasavvufning Naqshbandiya ta’limotining asoschisi Bahouddin Naqshband, Shohi Naqshband, Xojai Buzurg kabi nomlar bilan mashhur Muhammad ibn Muhammad Buxoriy (1318-1389). Naqshbandiya tariqati inson hayotini hamma jabhalarini chuqur o‘rgangan ta’limotdir. Naqshbandiya ta’limotida ko‘pgina faylasuf-olimlar qator tadqiqotlar o‘tkazib, ko‘pgina asarlar yaratgan. Shunday tadqiqotchi olimalarimizdan biri ustozimiz professor G.N.Navro‘zovadir. U ko‘plab shogirdlar yetishtirgan, tasavvuf falsafasini rivojlantirishda xizmat qilgan. Ustozimiz o‘z faoliyatlari davomida “Naqshbandiya tariqati” mavzusida monografiya, risola, maqola va ilmiy chiqishlar qilganlar. Ushbu tariqat tarixini o‘rganishdan maqsad, tariqatni tadqiqlash va kelajak avlodga yetkazishdir. Markaziy Osiyoda XIV asrda paydo bo‘lgan bir yirik tasavvufiy tariqat-“Naqshbandiya” tariqati Xoja Muhammad Bahouddin Naqshband nomi bilan bog‘liqdir. Naqshband 1318 yilda Buxoro yonidagi qasri Hinduyon qishlog‘ida tavallud topgan (so‘ngra Hazrati Naqshband sharofati bilan bu qishloq “Qasri Orifon” deb atala boshlangan). Bahouddin Naqshband umri davomida bir necha pining tarbiyasini olgan. Birinchi piri - Xoja Muhammad Boboyi Samosiy edi. U uyida hech qanday mol-dunyo va boylik saqlamagan. Qishda qamishlar ustida, yozda esa bo‘yra ustida yotib kun kechirgan. Uning uyida hech qachon xizmatkor ham bo‘lmagan. Hazrati Naqshband butun umrini o‘z xohishi bilan faqirlik va yo‘qsilliqda o‘tkazgan. Zero, bu tariqatning asl aqidasi -“Dil ba yor-u, dast-ba kor”-ya’ni “doimo ko‘ngling Allohda bo‘lsin, qo‘ling esa ishda”, degan g‘oyani ilgari suradi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ilmiy, ma’naviy, madaniy sohalardagi islohotlar natijasida jahonga mashhur allomalarimiz, mutafakkirlarimiz ilmiy-ma’naviy merosini, ularning diniy-irfoniy ta’limotlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi[1]. XIV asrda Markaziy Osiyoda paydo bo‘lgan “Naqshbandiya” ta’limoti Afg‘oniston orqali Hindistonga va boshqa islom yurtlariga shiddat bilan tarqala boshlaydi. Naqshbandiya ta’limoti Amir Temurning mo‘g‘ullar istilosiga qarshi kurash, mustaqil davlat barpo etib, unda madaniy-ma’naviy rivojlanishni

ta'minlashga intilishida, temuriy davri madaniy yuksalishida katta ijobiy ahamiyat kasb etadi. Naqshbandiya tariqati XVI asrda Xoja Muhammad al-Boqiy Kobuliy (vafoti 1605) Hindistonga borgandan so'ng Hind tuprog'ida ham avj oladi. Bu mashhur mutasavvuf olim Afg'on va Hind yurtlarida Xoja Boqibillo nomi bilan mashxurdir [2]. Uning shogirdi Xoja Ahmad Foruq Sirhindiy (1563-1624 yy.) esa Naqshbandiya ta'limotining XVII asrda Hindistonda yoyilishida katta rol o'ynagan. Shuning uchun ham o'z davridagi ilm-ma'rifatning, adabiyotning yirik namoyandalari bo'lmish Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xushholxon Xatak, Ahmad Shoh Durraniy, Mahdumquli Firog'iy singari yuzlab ulkan taraqqiyparvar, insonparvar shoirlar va mutafakkirlar Naqshbandiya yo'lini tanlaganlar, hayotni va insonni avji baland pardalarda kuylab, tinmay barakali ijod qilganlar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Xo'sh, Bahouddin Naqshband-kim? Muhammad Bahouddin an-Naqshband al-Buxoriy hazratlari bashariyat aqliy-hissiy, ilmiy-ma'rifiy taraqqiyotiga qanday hissa qo'shdilar? Nega odamlar ul zoti sharifni bunchalar ixlosu e'tiqod bilan tilga oladi? Qanday qilib Bahouddin "Balogardon" degan juda ulug' rutbaga musharraf bo'lganlar? Axir, Allohning o'zi emasmi barcha balolarni qaytarguvchi? Ne uchun bu ulug' zot qabrlarini nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari, balki Afg'oniston, Eron, Turkiyadan, Hindiston, Pokiston kabi o'lkalaru arab davlatlaridan kelib ziyorat qiladi? Nima sababdandirki, hozirgacha ham ko'pchilik Xudo yo'liga bag'ishlagan jonzotlarni keltirib, Bahouddin qabrlari qoshida so'yadi-xalqqa xomlayin tarqatadi yo pishirib beradi [3]. Naqshbandiya-qanday tariqat o'zi? Uning yassaviyadan nima farqi-bor? Naqshbandiya ta'limoti adabiyotimizga qanchalar ta'sir o'tkazdi? Alisher Navoiyning Bahouddin Naqshband va u kishi takomillashtirgan tariqat aqidalariga munosabati qanday?.

Yoki amalda Kubraviya tariqati vakili bo'lgan Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr"ga tarjima-nazira tariqasida bitilgan "Lison ut-tayr"da naqshbandiya tariqati g'oyalari qay tarzda aks etgan? Bu doston mohiyatining tasavvufiy talqinlari bizni nimalarga oshno etadi?

Shu va shunga o'xshash ko'p-ko'p savollarga javob topmay turib, Naqshbandning milliy-ma'rifiy tariximizda tutgan o'rnini tayin etish ham, hatto, Navoiy asarlari tub mohiyatiga yetish ham-mushkul.

XV asrgacha bo'lgan boy merosimizga shams ul-millatimiz bo'lmish Navoiyning pok nazari bilan qarashga o'rganib qolganmiz. Chunki bu buyuk qalam sohibining ijodi-biz uchun eng mo'tabar milliy qomus yanglig' qadrli. Bu buyuk shoirdan bir asr ilgari, anig'i, 1318-1389 yillarda yashab o'tgan Naqshband hayotlari va faoliyatlari, shuningdek, naqshbandiya tariqati xususiyatlarini o'rganish Navoiy asarlari mohiyatini tushunishni niyat qilgan har bir kitobxon uchun tabiiy bir ehtiyojga aylanishi-muqarrar [4].

Navoiy merosi-shunday buyuk bir xazinaki, undan xalqimiz tarixining eng qadim zamonlardan to XV asr oxirigacha bo'lgan davriga tegishli deyarli har qanday masalaga oid munosabat, hech bo'lmasa, muhim bir ma'lumot topasiz.

Natijalar. Naqshband, Xojagon-naqshbandiya ta'limoti tarixi, g'oyalari targ'ibi, bu tariqat vakillari hayoti va faoliyati bo'yicha turkiy tilda ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri asarlaridan ko'ra boyroq va mukammalroq boshqa biron manba-yo'q. Shuning uchun Naqshband va Navoiy masalasi faqat adabiyotshunoslikka emas, amalda dinshunoslik, tasavvufshunoslik, falsafashunoslik, tarixshunoslik, ma'naviyatshunoslik, mafkurashunoslik va fanning yana ko'plab sohalari izchil shug'ullanishi lozim bo'lgan mavzu hisoblanadi [5]. Binobarin, hozirgacha bu borada bir qadar ilmiy ishlar dunyoga keldi va ilgari yaratilgan ayrim kitoblar yana qaytadan chop etildi.

Navoiy asarlarida Xoja Bahouddin Naqshband ta'rifi masalasini yoritish uchun, avvalo, ulug' mutafakkir merosida ana shu buyuk avliyoga, umuman, naqshbandiya tariqatiga munosabat, shuningdek, shoir ijodida naqshbandiya ta'limoti g'oyalari targ'ibining ko'rinishlari va yo'nalishlarini aniqlab olish lozim.

Masalaga shu jihatdan yondashsak, kamida quyidagi manzara namoyon bo'ladi:

1. Xoja Bahouddin Naqshband hayotlari va faoliyatlarini yoritish ("Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat").

2. Xojagon-naqshbandiya tariqati vakillari hayoti va faoliyatini yoritish ("Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Majolis un-nafois", "Siroj ul-muslimin", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Arba'in").

3. Naqshband va naqshbandiylar badiiy timsollarini yaratish ("Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr").

4. Badiiy asarlarda naqshbandiya ta'limoti g'oyalarini targ'ib etish ("Xazoyin ul-maoniy", "Devoni Foni", "Hayrat ul-abror", "Sab'ayi sayyor", "Saddi Iskandariy", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub", "Siroj ul-muslimin") [6].

Bu yo'nalishlarning har biri-alohida-alohida tadqiqotga mavzu bo'lgulik darajada katta qamrovga ega. Ammo ilmimizda hali masala aynan shu tarzda qo'yilib, kompleks ravishda izchil o'rganilganicha-yo'q. Bu yo'nalishlar yuzasidan qarashlarimiz ham muntazam ravishda o'zgarib, rivojlanib, takomillashib borayotibdi. Shuning uchun ham davrlar o'tgani sayin ulug' avliyo Naqshband bilan dohiy shoir Navoiyni o'zaro bog'lab turgan talay rishtalarni izchil va maydalab o'rganishga ehtiyoj kuchaygandan kuchayaveradi. Chunki tasavvuf tarixida naqshbandiya eng so'nggi mukammal tariqat ekani, Navoiy merosi milliy ma'naviyatimizning yuksak cho'qqisi hisoblanishi, uning asarlarida bu tariqat

muallifning asl e'tiqodi, mafkurasi yanglig' namoyon bo'lgani inobatga olinsa, bu xususda so'z yuritishning ahamiyati o'z-o'zidan ayonlashadi va tiniqlashadi.

Shular jumalasidan "Sabr va chidamda nog'ora kabi bo'lmoq lozimki u qanchalik shapaloq yemasin biroq o'z odatiga xilof ovoz chiqarmaydi". Ushbu o'rinda Naqshband hazratlari ajoyib o'xshatish qiladilar.

Muhokama. Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik tushunchasi bugungi kunda juda ko'p talqin etilayotgandek sof diniy tushuncha emas, balki ma'naviy-axloqiy tushunchadir. Biz ko'pchilik hollarda diniy bag'rikenglik to'g'risida gapirsakda, uning bundan tashqari falsafiy, siyosiy, axloqiy va tasavvufiy shakllari mavjud. Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik quyidagi mezonlarni o'ziga asos qilib oladi:

1. o'z-o'zini anglash;
2. o'z yukini o'zi ko'tarish;
3. o'zgalarni xizmatga buyurmaslik;
4. o'zgalar yukini o'ziga olish.

Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik quyidagi shakl-ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- so'zda-shirin so'zli bo'lish;
- muomalada-o'zaro aloqada, muomala madaniyatini bilish;
- amalda-ya'ni o'zgalar uchun mashaqqat chekish, ularni yukini o'z zimmasiga olish shaklida;

Bag'rikenglik tushunchasi tasavvuf ta'limotidagi markaziy tushunchalardan biridir. U iymon, tavhid, zikr, odob, tavba, shukr, ma'rifat kabi tasavvufiy tushunchalar bilan bir qatarga qo'yilgan.

Tasavvufning ayniqsa Xojagon-naqshbandiya tariqatida bag'rikenglik tamoyili juda keng tushunilib, ushbu tariqat vakillari hayotining asosiy mazmuniga aylangan. Buni Buxoroda yashab o'tgan Yetti Pirning oxirgisi bo'lmish Bahouddin Naqshband hayoti bilan bog'liq bo'lgan quyidagi bir qator jihatlarda ko'rishimiz mumkin:

Bahouddin Naqshbandning kalomlari insonparvarlik ruhidadir. "Maqomot"da yozilishicha Bahouddindan bir kishi so'raydi: "Nega xizmatkor yollamaysiz?" Bahouddin javob beradilar: "Qullik xojalik bilan mos kelmaydi" va quyidagi ikki baytni aytganlar:

Na maro mafrashu na mafrashkash,
Na g'ulomoni turki tirkashkash.
Hama shab chun sagoni kahdoni,
Sar ba dum ovaram bixusbam xush.
Mazmuni:
Menda na gilam bor, na gilam tozalovchi,

Na turk g'ulomiyu, na suyanadigan kishi.

Tunda men yoturman it kabi miskin,

Boshimni dumimla o'ragancha shod [7].

Bahouddin Naqshbandning aytgan so'zlaridan ma'lum bo'ladiki, u kishi butun insoniyatni Ollohning bandasi hisoblaydilar. Banda Ollohning qulidir. Qul qanday qilib, boshqalarga xo'jayin bo'la oladi?! Shuning uchun Bahouddin birovni qul qilish, ustidan hukmronlik qilish, ozor berishga mutlaqo qarshi bo'lganlar. Bahouddin Naqshbandning yuqoridagi kalomlari shundan dalolat beradiki, u kishi insoniyat jamiyatida qullik va zo'ravonlik bo'lishiga mutlaqo qarshi chiqqanlar. Bahouddin butun insoniyatni Odam Ato naslidan bo'lganligi uchun ular bir-biri bilan birodar deb ta'kidlaganlar. Shuningdek barchamiz Ibrohim millatidan deb millatchilik va milliy kamsitishga ham qarshi bo'lganlar. Shuning uchun ham Bahouddin Naqshbandning qullik bilan xojalik bir-biriga mos kelmaydi degan qudsiy kalomlarini Abdrahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab mutafakkirlar o'z asarlarida yozib, uni tahlil etganlar.

Bahouddin Naqshbanddan: "Darveshlik nima?" deb so'rganlarida, hazrat quyidagicha javob berganlar: "Darveshlik tashdan berang ya'ni, rangsiz va ichdan bejang ya'ni, qarama qarshiliksiz, murosayu madorada bo'lishdir".

To dar in hirqaeem az hech kas mo,

Ham naranjemu, ham naranjonem.

Mazmuni:

To shu darveshlik hirqasida ekanmiz biz,

Hech kimdan ranjimaymiz va hech kimni ranjitmaymiz [8].

Bahouddin Naqshband darvesh, ya'ni so'fiylar barcha insonlarni millati, elati, jinsi, irqi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar Ollohning bandasi bo'lganligi uchun uni e'zozlashi lozimligini va shu bilan bir qatorda ularga ozor bermaslik kerakligini ta'kidlamodalar.

Bahouddin Naqshband barcha darveshlarga bu so'zni yod olinglar deb, quyidagi baytni ko'p takrorlar edilar:

Nekuvonro do'st dorad har ki boshad dar jahon,

Gar badonro do'st dori, go'y burdi az miyon [9].

Mazmuni:

Dunyodagi odamlar yaxshi kishilarni do'st tutadilar,

Agar sen yomonlarni ham yaxshi ko'ra olsang, o'rtadan adovatni olgan bo'lasan, ya'ni g'alaba qilasan.

Bahouddin Naqshbandning bu kalomlari ham jamiyatda barcha insonlarni bir-biriga do'stu ittifoq bo'lishga chaqiradi. Bu kalom yomonlarga qarshi kurash emas, ularni yomon ko'rish emas, balki u ham inson ekanligini anglab, unga xatosini tushunishi va yaxshi kishilar qatoridan o'rin olishiga yordam berish

lozimligini ta'kidlaganlar. Yomonlarga yaxshilik qilgan insonni chavgon o'yinida go'y, ya'ni aylana koptokni olgan va g'alaba qilgan kishi bilan tenglashtiradi.

Naql qilishlaricha, bir donishmand kishi Bahouddin Naqshbanddan so'ragan: "Silsilangiz qaerga boradi?" Hazrat shunday javob beradilar: "Kishi silsiladan hech qaerga borolmaydi"[10]. Bu kalomlari bilan Bahouddin inson qaysidir silsilaga kirganligi bilan ulug' emas, balki insoniylik fazilati bilan ulug'ligini ta'kidlamoqdalar. Bu kalom bilan insonlarni ma'lum tabaqa, nasab va imtiyozli guruhlariga mansub bo'lganligi bilan kibr qilmaslikga chaqiradilar. Agarda ularda ezgu insoniylikka xos fazilat bo'lmasa, unday kishi hurmatga loyiq emasligini va kibru havo hamda man-manlik qilmaslik lozimligini aytganlar.

Xulosa. Bahouddin Naqshbandning insonni e'zozlash, qadrlash va unga nisbatan mehr-muruvvatli bo'lish haqidagi g'oyalari va hikmatli so'zlarini yoshlar orasida targ'ib etish va tushuntirish jamiyatni tinch-totuv va ahil yashashiga yordam beradi.

Bahouddin Naqshband qalb masalasiga maxsus e'tibor berganlar. Qalb masalasi bag'rikenglik haqidagi g'oyalarning asosidir. Naqshbandiya ta'limotiga Bahouddin Naqshband "Vuqufi qalbiy"-qalbdan ogoh bo'lish rashhasini kiritib, bag'rikenglik tushunchasini mohiyatini ochganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ғазолий А. Ҳ. Мукошафатул қулуб (қалблар кашфиёти) / тарж. Миразиз Аъзам; масъул муҳаррир Шайх Абдулазиз Мансур. – тузат. қайта нашр. – Тошкент: Sharq, 2016. – 468 б.
2. Ғиждувоний А.Х. Васиятнома / масъул муҳаррир Х.Даврон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 16 б.
3. Наврўзова Г. Н. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси: фалсафа фан. докт. ... автореф. – Тошкент, 2002. – 46 б.
4. Наврўзова Г. Н. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси: Фалсафа фанлари доктори ... дис. – Тошкент, 2002. – 269 б.
5. Ориф Усмон. Бухоро шарифданинг етти пири. – Тошкент: ТошДШИ нашриёти, 2003. – 172 б.
6. Шайх Муҳаммад Содиқ. Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Тошкент: Ҳилол-нашр, 2016. – 296 б.
7. Сафарова Н. Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий қадриятлар масаласи: фалсафа фан. ном....дис. – Тошкент, 2001. – 164 б.
8. Холмўминов Ж. Нақшбандия пири // Таваккур. – 2001. – №4. – Б.48–52.
9. Ориф Усмон. Бахоуддин Накшбанд ва унинг таълимоти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 38 б.
10. Шайх Муҳаммад Содиқ. Нақшбандия: вазифалар, зикрлар / муҳаррир Барно Саидрахмон. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2018. – 160 б.